



KOGNITIV SOHA PROFESSOR-O‘QITUVCHILAR KASBIY RIVOJLANISH TRAYEKTORIYASINING DETERMINANTI SIFATIDA.

B.Raximov – Ma’mun universiteti o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada oliy o‘quv yurti professor-o‘qituvchilarining kasbiy rivojlanish trayektoriyasining asosiy determinantlaridan kognitiv sohaning aktual tomonlari haqida mulohaza yuritiladi.

Аннотация: В данной статье рассматриваются основные детерминанты траектории профессионального развития профессоров и преподавателей вуза, а также современные аспекты когнитивной сферы.

Annotation: In this article, the main determinants of the professional development trajectory of professors of the higher education institution are discussed in terms of the current aspects of the cognitive field.

Kalit so‘zlar: Kognitiv soha, oliy ta’lim, o‘qituvchi, trayektoriya, kasbiy rivojlanish, kasbiy maqsad, motivatsiya, malaka, kasbiy karyera,

Ключевые слова: Когнитивная сфера, высшее образование, педагог, траектория, профессиональное развитие, профессиональная цель, мотивация, компетентность, профессиональная карьера,

Key words: Cognitive domain, higher education, lecturer, trajectory, professional development, professional goal, motivation, competence, professional career,

O‘zbekiston Respublikamizning oliy ta’lim tizimi oxirgi yillarda taraqqiyotning yuqori darajasiga ko‘tarildi.

Xususan, Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora tadbirlar to‘g‘risida” gi 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-son qarori aynan shu masalaga qaratilgandir [1].

Hurmatli Prezidentimizning shu va boshqa sohaga oid ko‘plab farmon va qarorlari doirasida amalga oshirilayotgan tadbirlar bugungi kunda jahonda “Uchinchi renessans” ning asosi deya ta’riflanmoqda.

Mazkur fikrlarning o‘zi ham ta’lim tizimiga davlat siyosati darajasida e’tibor qaratilayotganligidan dalolatdir. Chunki davlatning, vatanning ertasini, bugun yaxshi va sifatli ta’lim olgan shaxslar quradi.



Psixologik nuqtayi nazardan, pedagoglarning kasbiy rivojlanishiga ko'plab omillar xususan, motivatsiya, o'z-o'zini baholash, muloqot, shaxslararo munosabatlar, ehtiyoj va qadriyatlarning ta'siri kattadir [2].

Bundan tashqari, shaxsning kognitiv sohasining yuqori darajada rivojlanganligi ham asosiy faktorlardan hisoblanadi.

Shaxsning bilish jarayonlari; sezgi, idrok, xotira, hayol va tafakkur insonning kasbiy faoliyatida yuqori natijalarga erishishida, kasbiy hamda shaxsiy rejalar tuzish va shunga yarasha harakatlari yo'nalishini belgilab olishiga yordam beradi.

Psixologiya fanida kognitiv yondashuv asosiy e'tiborni insonlarning ma'lumotni qanday tushunishi, qabul qilish, tartibga solishi va ishlatishiga qaratadi.

Kognitiv psixologiya, eksperimental psixologiyaning yetakchi yo'nalishi sifatida 20 asrning ikkinchi yarmi va 21 asrning boshlarida paydo bo'ldi. Bu yo'nalish kognitiv jarayonlar - idrok, diqqat, xotira, ta'lim, tafakkur, verbal va noverbal muloqot, fikrlash, shuningdek, ong holatini o'rganadi. Insonning bilish va amaliy faoliyati kontekstida his-tuyg'ular hamda motivatsiyaning ahamiyatini o'rganadi.

Kognitiv psixologiya insonning texnik tizimlar (muhandislik psixologiyasi, ergonomika) bilan o'zaro munosabatlarini optimallashtirish va o'quv jarayonlarini qo'llab-quvvatlashning amaliy muammolari ta'siri ostida shakllanadi. Bu muammolarni 1960-yillarga qadar Amerika psixologiyasida hukmronlik qilgan bixeviorizm (xulq-atvor nazriyasi) bilan hal qilish mumkin bo'lmagan muammolarga yechim topish maqsadida yuzaga keldi. Bixeviorizm, hayvonlar bilan laboratoriyada tajribalari o'tkazishga qaratilgan edi. Bixeviorizmdan farqli o'laroq, kognitiv psixologiya tadqiqot markaziga nafaqat aqliy (ya'ni, insonning ichki dunyosi bilan bog'liq) tushunchalarni ham qo'ydi, shuningdek, introspeksiya yordamida to'plangan malumotlardan foydalanishga ham ruxsat bermadi.

Geshtalt psixologiya vakillari (K. Byuler, L. S. Vigotskiy, J. Piaje) bolaning intellektual rivojlanishida ichki kognitiv muhiti mavjudligini tan olgan. Kognitiv disfunktsiyalar va neyropsixologiyani tahlil qilish (A. R. Luriya, D. Xebb va boshqalar) kognitiv psixologiyaning rivojlanishida muhim rol o'ynadi. XX asrning o'rtalarida kompyuter inqilobi va nutq sintaksisini tavsiflashda algoritmik yondashuv imkoniyatini ko'rsatuvchi N. Xomskiyning lingvistik asarlari bilan bog'liq bo'lgan, ichki aqliy jarayonlarni tahlil qilish amaliy jihatdan tadqiqotlar o'rnini markazini egalladi. Masalalarni yechish jarayonini kompyuterda modellashtirish va sun'iy intellekt bilan ishlashning boshlanishi. 1967-yilda Zels,

Vyursburg maktabining vakili sifatida, U.Naiser esa ta'lim yetakchiligi va kognitiv psixologiyaga oid birinchi asarlarni yozdilar. [3].

Kognitiv-bixevioral psixoterapiya – inson fikri va xulq-atvori bilan bog'liq muammolarini engib o'tish uchun o'ziga baho berish qobiliyati, strategiyasi va yo'nalishlarini o'zgartirishga qaratilgan psixoterapevtik yondashuv. Bu yo'nalish asoschisi amerikalik psixoterapevt A. Bek (1921 yil tug'ilgan). Kognitiv-bixevioral psixoterapiya kognitiv psixoterapiya (angl. cognitive therapy, 1967) negizida yaratildi. Kognitiv-bixevioral psixoterapiya 2 xil maktab, ya'ni kognitiv va bixevioral psixoterapiya negizida shakllanadi.

Kognitiv-bixevioral psixoterapiyada quyidagi uch holat farq qiladi:

1.Kognitsiya – ma'lumotni esga olish, xayolida qayta ishlash, argumentatsiya qilish va anglab yetish kabi tushunchalardan iborat.

2.Konatsiya – maqsadga yo'naltirilgan harakat, motivatsiya, instinkt, xohish va iroda kabi tushunchalardan iborat.

3.Affekt – hissiy reaksiyalar va kayfiyatdan iborat [4].

Albatta, mazkur 3 ta komponent shaxs hayotiy va kasbiy faoliyat jarayonida bevosita ishtirok etib, bir-birini to'ldirib, xulq-atvorni tartibga solishda hamda harakatning pirovard natijasining muvofaqiyatini ta'minlaydi.

Agar mazkur 3 ta komponentning qaysidir birida muammo paydo bo'lsa, bu holat qolgan ikkita komponentning faoliyatiga ta'sir ko'rsatib, shaxsning fikrlash, xatti-harakatlar dinamikasi hamda xulq-atvor ko'rinishlarining o'zgarishiga olib kelishi mumkin ekan. Bu holat shaxsning boshqa shaxslar tomonidan odatdagiday idrok qilinmasligiga sabab bo'lishi mumkin.

Professor-o'qituvchilarning kasbiy jihatdan karyerasining yuksalishi ham aynan shaxs kognitiv sohasining rivojlanganligi bilan chambarchas bog'liqdir.

Karyera - bu muvaffaqiyat, martaba ko'tarilishi. Boshqacha qilib aytganda, bu shaxsning kasbiy o'sishi bilan bog'liq bo'lgan mehnat faoliyatidagi muayyan xatti-harakati va pozitsiyasining natijasidir. Har bir inson o'zicha martabasini quradi va bu ko'pincha uning xohish - istaklari, maqsadlari va munosabatlariga bog'liq bo'ladi [5].

Bugungi kunda “Karyera markazlari” degan tushuncha ham bizning terminologiyamizga kirib kelgan. Ko'plab mamlakatlarda xususan, bizning O'zbekiston Respublikasida ham bu amaliyot yo'lga qo'yilgan.

Karyera markazlari - talabalar va professor-o'qituvchilar uchun qulay muhit yaratish, bitiruvchilarning hamda yangi pedagogik faoliyat boshlagan professor-o'qituvchilarning o'zlarining martaba yo'nalishini samarali rejalashtirish va

muvaffaqiyatli kasbiy faoliyatda o'zini-o'zi anglash va rivojlantirishda yordam beradi. Muvaffaqiyatli professional startni rag'batlantiradi, o'qituvchilar, talabalar, o'quvchilar, kattalarning biznes orqali professional harakatchanligini ta'minlaydi va ta'lim muassasalari hamda kasbiy uyushmalar tarmoqlariga yo'naltiradi. Bundan tashqari har bir talabaga individual yondashish, yordam berish karyerani rejalashtirish va rivojlantirish, bandlik, shuningdek, qo'shimcha tanlov imkoniyati, o'quv dasturlari va amaliyotlar bilan ta'minlaydi [6].

Mazkur jarayonda oliy ta'lim muassasalarida tashkil etilgan karyera markazlari tomonidan tashkil etiladigan xorijiy stajirovkalar hamda konferensiyalarning ahamiyati ham juda kattadir.

Kasbiy karyera – bu bilim, malaka va qobiliyatlarning o'sishi. Bunda o'qituvchi o'zining ixtisosligi bo'yicha borib, ma'lum bir obro' va nufuzga ega bo'lishga harakat qilib, shunga erishishi nazarda tutiladi [7].

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, o'qituvchi shaxsi o'z ontogenizida ma'lum bir yutuq va muvaffaqiyatlarga erishish va shaxsiy kasbiy karyerani qurishni maqsad qilib olar ekan bu jarayonida o'zining hayotiy ehtiyoj va qiziqishlaridan kelib chiqqan holda o'zining harakatlarini ana shu maqsadlarini amalga oshirishga safarbar qiladi.

Mazkur jarayonda kognitiv sohaning roli beqiyosdir. Chunki shaxs tomonidan ehtiyojlarning anglanishi hamda ularni qondirish faoliyatga kirishish ham aynan, kognitiv sohaning funksiyasi hisoblanadi.

Bunda, o'qituvchi o'zidagi imkoniyat va vaqtni idrok qila olishi, yaqin, oraliq hamda uzoq muddatli maqsadlarni to'g'ri rejalashtira olishi juda ham muhim hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Sh.M.Mirziyoyevning "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifa ntini oshirish va ularning mamlakatda oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora –tadbirlar to'g'risida" gi 05.06.2018 yildagi PQ – 3775 –sonli Qarori. //http://lex.uz.

2. Raximov B.A. Kasbiy rivojlanish trayektoriyasiga ta'sir qiluvchi motivatsion omillarning amaliy o'rganilishi tahlili.Psixologiya ilmiy jurnal. ISSN 2181-5291. Buxoro davlat universiteti.174 b.

3. Величковский Борис Митрафанович. <https://bigenc.ru/a/b-velichkovskiy-6c4c30>



4. Manba: ©Z. Ibodullayev. Tibbiyot psixologiyasi. Darslik., 3-nashr., T.; 2019., 494b. © Ibodullayev ensiklopediyasi., 2022 <https://asab.cc/uz/jenciklopediya/857-kognitiv-bixevioral-psixoterapiya.html>
5. Научный журнал Современные наукоемкие технологии. Понятие карьеры и карьерного роста персонала предприятия. № 10 (часть 2) – С.271-272. 2013 г <https://top-technologies.ru/ru/article/view?id=33483>.
6. Слостникова Н.Г.Руководство по стратегическому планированию для Центров карьеры. American University of Central Asia.Бишкек, 2015
7. И.И. Голованова. Саморазвитие и планирование карьеры. Казанский университет.2013. С 10.